

O'ZBEKISTONNING 2030-YILGACHA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH STRATEGIYASI

Temirova Sarvinoz

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi sarvinoztemirova58@gmail.com

Tohirova Feruza

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi tohirovaferuza41@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning 2030-yilgacha kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ishlab chiqilgan milliy strategiyasi tahlil qilinadi. Unda kambag'allikni kamaytirishning asosiy yo'nalishlari, ya'ni aholini barqaror bandlik bilan ta'minlash, ta'lim va sog'liqni saqlash sifatini yaxshilash, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish hamda hududlararo iqtisodiy tengsizlikni bartaraf etish choralari yoritib berilgan.

Kalit so'z: kambag'allik, strategiya, ijtimoiy himoya, sog'liqliqni saqlash, bandlik, xalqaro tashkilot.

Kambag'allik bugungi kunda dunyodagi eng keskin ijtimoiy muammolardan biriga aylandi. Turli mamlakatlardagi hukumatlar va jamiyatning barcha qismlari kambag'allik masalasiga doimo kata ahamiyat berib kelgan, shu maqsadda biz kambag'allik tushunchasiga anniqlik kiritishimiz kerak.

O'zbekistonning rivojlanish iqtisodiyotida kambag'allik aholi daromadlarining pastligi, iste'mol salohiyati cheklanganligi va resurslarga kirish imkoniyati sustligi bilan bog'lanadi.

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarda davlat siyosatining keng ko'lamli ijtimoiy dasturlar bilan uyg'unlashuvi kambag'allikni kamaytirishda muhim bo'lishi ta'kidlanadi.

Shu boisdan 2030-yilgacha "Kambag'allikni qisqartirish strategiyasi" mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish konsepsiyasida asosiy o'rin egallaydi.

O'zbekiston mustaqillikdan buyon iqtisodiy o'sish sohasida sezilarli natijalarga erishgan bo'lsa-da, aholining muayyan qismi hali ham kambag'allik chegarasida yashamoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yillarning boshlarida O'zbekistonda kambag'allik darajasi 17-20% atrofida bo'lgan.

Keyingi yillarda davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar natijasida bu ko'rsatkichlar kamayib bormoqda. 2023-yilga kelib davlat idoralari tomonidan kambag'allikni aniq o'lchash uchun xalqaro tajriba asosida "Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi" elementlarini joriy etish bo'yicha qadamlar qo'yilayotgani kuzatiladi.



Bu indeksda iqtisodiy daromad bilan birga, sog'liqni saqlash, ta'lim, ichimlik suvi, sanitariya, uy-joy bilan ta'minlanganlik kabi omillar ham inobatga olinadi.

Prezident ta'kidlaganidek yangi tashabbus va tajribalarni sinovdan o'tqazib, dunyodagi ijobiy yutuqlarni o'rganib, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha Yangi O'zbekiston modeli yaratildi. Avvalo o'tish davrining muhim instrumenti bo'lgan manzilli ijtimoiy daftarlar joriy etilib, barcha ehtiyojmand oilalar qamrab olindi. Xususan, "Har bir oila-tadbirkor", "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" kabi dasturlar orqali aholining turli qatlamlari uchun iqtisodiy imkoniyatlar yaratilmoqda.

Izchil islohotlar tufayli 7,5 million aholi kambag'allikdan chiqarilib, kambag'allik darajasi 2024 yilda 8.9 foizga tushirildi. Yil yakunigacha uni 6 foizgacha kamaytirish maqsad qilingan. Masalan, pandemiya davrida 800 ming oila bepul dori-darmon, 225 ming oila oziq-ovqat mahsulotlari yana 1 million 200 ming oilaga ijtimoiy nafaqalar berildi. Natijada 5 million 200 ming nafar odam "kambag'allik qopqoni"ga tushib qolishdan himoya qilindi va shu bilan birga iqtisodiy retsessiyaning oldi olindi.

2030-yilga qadar strategiya quyidagi natijalarga erishishni ko'zda tutadi:

- Kambag'allik darajasini ikki baravarga qisqartirish
- Aholining bandlik darajasini oshirish va norasmiy mehnatni qisqartirish
- Ijtimoiy xizmatlar va infratuzilmaga teng kirish imkoniyatini yaratish
- Ayollar va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish
- Innavatsion iqtisodiyot va raqamli transformatsiya orqali yangi imkoniyatlar yaratish.



O'zbekistonning turli hududlarida kambag'allik darajasi bir xil emas. Rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, viloyatlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Eng yuqori kambag'allik darajasi Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Toshkent shahrida kuzatiladi.

Kambag'allik darajasi eng yuqori bo'lgan hududlar qatoriga Qoraqalpog'iston Respublikasi (19,7%), Toshkent viloyati (19,5%) hamda Xorazm viloyati (19,1%) kiradi. Ushbu hududlarda iqtisodiy imkoniyatlarning yetarli emasligi, ish o'rinlarining



cheklanganligi yoki ijtimoiy sharoitlarning og'irligi kabi omillar kambag'allik darajasining yuqoriligi bilan bog'liq deb baholash mumkin.

Andijon viloyati (17,4%), Qashqadaryo (16,1%), Farg'ona (14,4%), Surxondaryo (14,0%), Sirdaryo (13,7%), Samarqand (12,8%) va Navoiy viloyati (12,7%) o'rtacha kambag'allik darajasiga ega hududlar sirasiga kiradi. Bu viloyatlarda sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari o'rtacha darajada rivojlangan bo'lib, kambag'allik darajasi juda yuqori ham, juda past ham emas.

Buxoro (11,9%), Farg'ona grafikdagi boshqa ustunda 11,6% bilan, shuningdek Namangan va Jizzax viloyatlari 9,2% bilan nisbatan past ko'rsatkichlarga ega. Ushbu hududlarda aholi bandligi yaxshiroq yo'lga qo'yilgan bo'lishi, tadbirkorlik faol bo'lishi va iqtisodiy imkoniyatlarning o'rtacha barqarorligi kambag'allik darajasining past bo'lishiga sabab bo'lgan.

Eng past kambag'allik ko'rsatkichi esa Toshkent shahrida (8,5%) qayd etilgan. Bu esa poytaxtda ish o'rinlari ko'pligi, xizmat ko'rsatish va sanoat sohalarining rivojlanganligi bilan bog'liq.

Umuman olganda, mazkur statistika O'zbekiston hududlarida iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha ekanini ko'rsatadi.

Yuqori kambag'allik darajasiga ega hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish, past ko'rsatkichlarga ega hududlarda esa mavjud rivojlanish sur'atlarini davom ettirish muhimdir.

Xulosa:

O'zbekistonning 2030-yilgacha kambag'allikni qisqartirish strategiyasi-bu faqat iqtisodiy dastur emas, balki har bir fuqaroning farovon hayot kechirishiga qaratilgan umumiy islohotlar tizimidir.

Strategiyaning muvaffaqiyati davlat siyosatining izchilligi, xalqaro hamkorlik va aholining faol ishtirokiga bevosita bog'liq. Shunday ekan, 2030 yilga borib O'zbekiston kambag'allikni sezilarli darajada qisqartirish orqali barqaror rivojlanish yo'lida yangi bosqichga chiqadi.

Takliflar:

1. Bandlikni kengaytirish va sifatli ish o'rnini yaratish
2. Ta'lim sifati va kasbiy malakani oshirish
3. Ijtimoiy himoya tizimini optimallashtirish
4. Hududlar bo'yicha iqtisodiy tafovutni kamaytirish
5. Raqamli iqtisodiyot va innovatsion loyihalarni rivojlantirish
6. Kichik va o'rta biznesni qo'llash
7. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirish
8. Moliyaviy savodxonlikni oshirish





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. To'raeva.S-O'zbekiston iqtisodiyotida kambag'allikka qarshi kurash strategiyalari,"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalari" jurnali,2024
2. Qosimov.M va Karimova.N –Ijtimoiy siyosat va kambag'allikni kamaytirish mexanizmlari,Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti,2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti:
<https://www.mf.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori-"2030-yilgacha kambag'allikni qisqartirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida",2022-yil 25-dekabr.
5. Ziyodullaev, N., & Ziyodullaeva, M. (2023). FINANCIAL LITERACY, INTERRELATIONSHIP OF POPULATION INCOME AND EXPENDITURE. Science and innovation, 2(B12), 881-887.
6. Urazbekovna, T. K. (2024). ROLE OF PUBLIC POLICY IN CHANGES IN POPULATION INCOME. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(22), 316-321.

